

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Intellectual mulk sohasini rivojlantirish mamlakatimizning jahon integratsiyasidagi asosiy omil ekanligidan kelib chiqib, intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha **Harakatlar strategiyasida** belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida:

1. 2021-yil 1-apreldan boshlab:

intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalar normalaridan kelib chiqib, tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisining faqat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilishiga nisbatan qonunchilikdagi mavjud cheklovlar bekor qilinsin;

intellektual mulk obyektlarini davlat ro‘yxatiga olish muddatlarini keskin qisqartirish imkoniyatlarini yaratuvchi tezkor ekspertiza tartibi joriy etilsin. Bunda, intellektual mulk obyektni muhofazaga olish uchun topshiriladigan talabnoma bo‘yicha dastlabki qidiruv tomonlarning kelishuviga muvofiq amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

2. Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) faoliyatida intellektual mulk obyektlariga talabnomalarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish jarayonida outsorsing usullarini qo‘llash tajribasi yo‘lga qo‘yilsin.

3. Quyidagilar:

Intellectual mulk muhofazasini mustahkamlash va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” **1-ilovaga** muvofiq;

Intellectual mulk (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari) sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2021 — 2023-yillarga mo‘ljallangan amaliy ishlar dasturi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik, idora va boshqa tashkilotlar, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining birinchi rahbarlari zimmasiga “Yo‘l xaritasi” va dasturda belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

4. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra:

2025-yil 1-yanvarga qadar milliy eksport qiluvchilar tomonidan chet elda tovar kelib chiqqan joy nomlari (geografik ko‘rsatkichlar)ni ro‘yxatga olish bo‘yicha qilinadigan sarf-xarajatlari Agentlikning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan to‘liq qoplanadi;

2021-yil 1-iyunga qadar davlat boshqaruvi organlari va davlat korxonalari, ilmiy-tadqiqot va oliy ta‘lim tashkilotlari o‘zlariga tegishli bo‘lgan intellektual mulk (mualliflik huquqi, turdosh huquqlar va sanoat mulki) obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazib, ularni buxgalteriya hisobida aks ettiradi;

eksport ulushi umumiy tovar aylanmasining 60 foizidan ortig‘ini tashkil etadigan eksport qiluvchi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari uchun tovar belgilarini 2021-2022-yillarda milliy ro‘yxatdan o‘tkazish bepul amalga oshiriladi;

tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonida tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisini ham davlat ro‘yxatidan o‘tkazish targ‘ib qilinadi;

Savdo-sanoat palatasi va Agentlik tomonidan yiliga kamida bir marta respublikaning har bir ma‘muriy birliklarida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etayotgan shaxslar uchun o‘z brendiga ega bo‘lishning afzalligi bo‘yicha O‘zbekiston va xalqaro miqyosda tan olingan milliy brendlar egalari bo‘lgan ishbilarmonlarning ishtirokida milliy anjumanlar va master-klasslar o‘tkaziladi.

5. Agentlik va Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021-yil 1-oktabrga qadar davlat boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, ilmiy-tadqiqot va oliy ta‘lim tashkilotlari o‘ziga tegishli

bo'lgan intellektual mulk obyektlari hisobini to'g'ri yuritish, ularga bo'lgan huquqlarni xo'jalik muomalasiga kiritish, ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirilishiga ko'maklashishga qaratilgan Agentlik huzuridagi "Patent platformasi"ni ishga tushirish bo'yicha taklifiga rozilik berilsin.

Belgilansinki:

mazkur platformada ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari muhofaza hujjatlariga oid ma'lumotlar batafsil aks ettiriladi;

platforma elektron shaklda real vaqt rejimida yuritiladi hamda unga tadbirkorlik subyektlari ixtiyoriy va bepul asosda kiritiladi.

6. Belgilansinki:

eng yaxshi intellektual mulk obyektlari yaratuvchilarini Agentlik tomonidan Butunjahon intellektual mulk tashkilotining maxsus mukofotlariga taqdim etish bo'yicha tavsiyalar kiritiladi;

"Eng yaxshi intellektual mulk obyekti" tanlovi Agentlik tomonidan bir yilda bir marta tashkillashtiriladi;

"Eng yaxshi intellektual mulk obyekti" tanlovi g'oliblariga (uchta) Agentlikning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 30, 25, 20 baravari miqdorida pul mukofotlari topshiriladi.

7. Adliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Agentlikning intellektual mulk sohasiga oid fanlarni kadrlar tayyorlash tizimiga, jumladan respublika ta'lim tashkilotlari, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlarida bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risidagi taklifi qo'llab-quvvatlansin.

Belgilansinki, intellektual mulk sohasiga oid fanlarni kadrlar tayyorlash tizimiga joriy etishning birinchi bosqichida, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tashkilotlarida, xususan, ishlab chiqarish va texnik, qishloq va suv xo'jaligi sohalaridagi ta'lim yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajriba asosida hamda yosh avlod orasida ijodkorlarning mehnatiga bo'lgan hurmat hissini shakllantirishga qaratilgan intellektual mulk fanlari joriy etiladi va ular bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda sohada faoliyat olib boruvchi amaliyotchilar ishtirok etishi ta'minlanadi.

8. Innovatsion rivojlanish vazirligi zimmasiga ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim tashkilotlarini intellektual mulk masalasida iqtisodiyot tarmoqlari (yengil sanoat, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va boshqalar) bilan bog'lashni ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

9. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish va vinochilikni rivojlantirish agentligi, Savdo-sanoat palatasi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi, "Hunarmand" uyushmasi va "Navoiyazot" AJ 100 ta "mahalliy brend"larni xalqaro ro'yxatga olishni tashkil etsin.

10. Savdo-sanoat palatasi har bir hududda yiliga kamida to'rt marta franshizalar yarmarkasi va ko'rgazmalarini tashkil etsin.

11. Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim tashkilotlarida intellektual mulk sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga muntazam ravishda hisobot berish tartibi yo'lga qo'yilsin.

12. Oliy sud, Adliya vazirligi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi ikki oy muddatda xalqaro ekspertlarni jalb qilib, sudyalarni intellektual mulk sohasida o'qitish dasturini ishlab chiqib, yil yakuniga qadar sudyalarni o'qitish tizimini yo'lga qo'ysin.

Bunda, xalqaro tashkilotlari ko'magi ostida intellektual mulk sohasidagi nizolarni ko'rib chiquvchi sudyalarni uchun chuqurlashtirilgan o'quv dasturi tashkil etilishiga alohida urg'u berilsin.

13. Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish va amalga oshirilayotgan ishlarning manzilliligini ta'minlashni ko'zlab, adliya organlari va muassasalari boshqaruv xodimlarining cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida hududiy adliya boshqarmalarining 11 ta va tuman (shahar) adliya bo'limlarining 17 ta shtat birliklarini optimallashtirish hisobiga Agentlikning tuzilmasida:

Intellektual mulk huquqlariga rioya etilishini monitoring qilish bo'limi negizida Intellektual mulk himoyasi boshqarmasi (keyingi o'rinlarda — Boshqarma);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Intellektual mulk himoyasi markazlari (keyingi o‘rinlarda — markazlar) tashkil etilsin.

Bunda, adliya organlarining o‘tkazilayotgan 28 ta shtat birliklaridan 3 tasi — Boshqarmani, 25 tasi — markazlarni to‘ldirish uchun yo‘naltiriladi.

14. Belgilab qo‘yilsinki:

Boshqarma markazlar faoliyatiga tashkiliy va metodik jihatdan rahbarlik qiladi;

markazlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari binolarida tekin foydalanish huquqi asosida joylashtiriladi;

markazlarga ishga qabul qilinadigan xodimlar, Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazida intellektual mulk va uni huquqiy himoya qilishning nazariy va amaliy masalalariga oid o‘quv dasturlari bo‘yicha ta‘lim oladilar.

15. Markazlarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

kontrafakt mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularning muomalasiga, shuningdek, intellektual mulk huquqlarining buzilishiga qarshi tizimli va samarali kurashishda bevosita ishtirok etish, xususan, ogohlantiruv va taqdimnomalar kiritish, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomalarni tuzish;

joylarda intellektual mulk obyektlarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq faoliyatga ko‘maklashish;

intellektual mulk sohasidagi huquqni qo‘llash amaliyotini izchil va bir xilda ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

jamiyatda intellektual mulkka nisbatan huquqiy madaniyatni oshirish va hurmat hissini shakllantirish maqsadida intellektual mulk huquqlari bo‘yicha qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng ommaga yetkazish.

16. Agentlik ikki oy muddatda markazlarni yuqori malakali kadrlar bilan, birinchi navbatda, amaliy tajribaga ega hamda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajarishga qodir shaxslar orasidan ochiq tanlov asosida Agentlik tomonidan belgilanadigan tartibda to‘ldirilishini hamda markazlar to‘g‘risidagi nizomlar ishlab chiqilishini ta‘minlasin.

17. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash bilan bog‘liq budget xarajatlari 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasining respublika budgetidan birinchi darajali budget mablag‘larini taqsimlovchi sifatida Adliya vazirligiga ajratiladigan mablag‘lar doirasida belgilansin, 2022-yildan boshlab esa O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutilsin.

18. Agentlikka o‘zining budgetdan tashqari mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan:

markazlar moddiy-texnik bazasini shakllantirish, shu jumladan kompyuter va nusxa ko‘chirish texnikasi, aloqa vositalari, mebel sotib olish;

davlat ekspertizasini amalga oshirishga milliy, xalqaro va xorijiy ilmiy-tadqiqot, oliy ta‘lim va ekspertlik tashkilotlarini hamda yuqori malakali soha mutaxassislari va ekspertlarini shartnoma asosida jalb etish;

Agentlik huzuridagi “Patent platformasi”ni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha sarf-xarajatlarni amalga oshirish huquqi berilsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga [3-ilovaga](#) muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

20. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

21. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas‘ul hamda shaxsiy javobgar etib adliya vaziri R.K. Davletov belgilansin.

Qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun mas‘ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga har yarim yil yakuni bo'yicha axborot kiritib borilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 28-yanvar,
PQ-4965-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PQ-4965-son **qaroriga**
1-ILOVA

**Intellectual mulk muhofazasini mustahkamlash va zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalarini joriy etish bo'yicha**

“YO‘L XARITASI”

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Intellectual mulk sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish				
1.	“Tovar kelib chiqqan joy nomlarini muhofaza qilish va ularni xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi Lissabon bitimi”ning (1958-yil 31-oktabr) qoida va normalariga muvofiqlashtirilgan “Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish.	O'zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi	2021-yil 1-iyun	Adliya vazirligi (<i>R. Davletov</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>J. Xodjayev</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>A. Komilov</i>), Savdo-sanoat palatasi (<i>A. Ikramov</i>)

2.	Kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasining oldini olish bo'yicha real mexanizmlarni nazarda tutuvchi quyidagi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi — intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning buzilishiga oid tegishli moddalardagi sanksiyalarni kuchaytirish; O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi — mualliflik va turdosh huquqlari buzilishi hamda o'zganing tovar belgisidan, xizmat ko'rsatish belgisidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish yuzasidan; “Ixtirolar, foydali modellar” to'g'risida”gi, “Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida”gi va “Firma nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari — yuridik shaxslarning korporativ javobgarligini belgilash, bunda ularga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 200 baravarigacha bo'lgan miqdorda moliyaviy sanksiyalarni qo'llash yuzasidan; tegishli qonunlarga — mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarining, jumladan, audiovizual asarlar va fonogrammalarning axborot-kommunikatsiya tarmoqlarida himoyasini to'liq ta'minlash yuzasidan.	O'zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi	2021-yil 10-iyun	Adliya vazirligi (R. Davletov), Bosh prokuratura (N. Yo'ldoshev), Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi (N. Sharipov), Oliy sud (K. Kamilov)
----	--	--	------------------	--

3.	O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuniga tovar belgisiga topshirilgan talabnoma norezidentlarga o'tkazilgan hollarda norezidentlar tomonidan patent bojlarini mutanosib miqdorlarda to'lanishini ta'minlashni nazarda tutuvchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish.	O'zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi	2021-yil 20-mart	Adliya vazirligi (R. Davletov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov)
4.	Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda "Intellektual mulkni rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi"ni ishlab chiqish, bunda rivojlangan mamlakatlar tajribasini asos sifatida olish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil mart	Adliya vazirligi (R. Davletov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abdurahmonov), tegishli vazirlik va idoralar
5.	Intellektual mulk huquqlarni buzish natijasida intellektual mulk obyekti huquq egasiga yetkazilgan haqiqiy zarar va boy berilgan foydani aniqlash hamda qoplash mexanizmini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil avgust	Adliya vazirligi (R. Davletov), Bosh prokuratura (N. Yo'ldoshev), Oliy sud (K. Kamilov)

6.	Intellectual mulk sohasidagi dolzarb quyidagi xalqaro shartnomalarga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi yuzasidan zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish: a) Ko'zi o'jiz, ko'rishda nuqsoni bo'lgan va bosma axborotni idrok etishda boshqa jihatdan qobiliyati cheklangan shaxslarning nashr etilgan asarlardan foydalanishini yengillashtirish to'g'risidagi Marokash shartnomasi (2013-yil 27-iyun); b) Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi Singapur shartnomasi (2006-yil 27-mart); v) Sanoat namunalarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida Gaaga bitimining Jeneva akti (1999-yil 2-iyul); g) Ijrochilar, fonogramma yaratuvchilar va eshittirishlar tayyorlovchi tashkilotlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Rim xalqaro konvensiyasi (1961-yil 26-oktabr).	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2021-yil 20-aprel	Adliya vazirligi (R. Davletov), Tashqi ishlar vazirligi (A. Kamilov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), MTRK (A. Xadjayev), Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), tegishli vazirlik va idoralar
7.	O'zbekiston Respublikasining Intellectual mulk kodeksini ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil dekabr	Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abdurahmonov), tegishli vazirlik va idoralar
II. Intellectual mulk sohasi faoliyatini rivojlantirish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish				

8.	Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha mulkiy huquqlarni himo qilishga ko'maklashuvchi "Faol muallif" ma'lumotlar reyestrini yaratish. Mazkur reyestr quyidagi mezonlar asosida ishlashini nazarda tutish: mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarni ushbu reyestrda joylashtirish va undan bepul foydalanishni ta'minlash; muallif yoki boshqa huquq egasi o'z vakolatlarini mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning birigagina berishga haqli ekanligi. Ma'lumotlar reyestrini yaratish bo'yicha loyiha-texnik hujjatlarning o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-sentabr	Intellectual mulk agentligi (<i>T. Abdusattarov</i>), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (<i>Sh. Sadikov</i>), Madaniyat vazirligi (<i>O. Nazarbekov</i>)
9.	Quyidagi tarkibiy qismlardan iborat "IP-Protection" axborot portalini ishlab chiqish: intellektual mulk obyektlari orasida eng ko'p huquqbuzarlik hollariga uchrayotganlari ro'yxati; sohaga oid huquqbuzarlik avj olayotgan hamda huquqbuzarlik darajasi va o'sish tempi pasaymayotgan joylar xaritasi; sud ajrimlari hamda tadbirkorlik subyektlari yoki ularning patent vakillari (advokatlari)ning arizalari va asoslantirilgan ma'lumotlarini monitoring qilish asosida tuzilgan huquqbuzarlar reyestri.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 25-aprel	Intellectual mulk agentligi (<i>T. Abdusattarov</i>), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (<i>Sh. Sadikov</i>), Davlat bojxona qo'mitasi (<i>M. Azimov</i>), Davlat soliq qo'mitasi (<i>Sh. Kudbiyev</i>), Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (<i>D. Raximov</i>)

10	Hududlardagi mavjud ilmiy salohiyat va axborot-resurs markazlari imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga ixtisoslashgan oliy ta'lim tashkilotlarida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari tarmog'ini kengaytirish, ularning faoliyatini rag'batlantirishni ko'zda tutuvchi takliflarni ishlab chiqish.	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2021-yil 15-may	Adliya vazirligi (R. Davletov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshkulov)
III. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasida qonuniylikni ta'minlash				
11.	Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlarining efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlardagi ijrosini o'rganish. O'rganish yakunlari va xorijiy ilg'or tajriba asosida ma'lumotnoma tayyorlash, unda xalqaro konvensiyalar va milliy qonun hujjatlari ijrosini ham inobatga olish.	Tashkiliy chora-tadbirlar Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	Muntazam ravishda 2021-yil 1-iyul	Bosh prokuratura (N. Yo'ldoshev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), tegishli vazirlik va idoralar
12.	Mualliflarning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarini to'laqonli himoya qilish maqsadida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarining Internetdagi himoyasini to'liq ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 10-may	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), "O'zkomnazorat" (G'. Ziyayev), Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov)
IV. Intellectual mulk sohasidagi qonuniylikni ta'minlashda idoralararo hamkorlikni ta'minlash				

13.	Tadbirkorlik subyektlarining tovar kelib chiqqan joy nomi (geografik ko'rsatkich) bevosita aks ettirilgan mahsulotni xalqaro elektron savdo platformalari orqali eksport qilgandagi sarf-xarajatlari bo'yicha kompensatsiyalar berish masalasini tahliliy o'rganish.	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2021-yil 15-iyul	Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (A. Voitov), Eksportni rag'batlantirish agentligi (U. Muradov), Savdo-sanoat palatasi (A. Ikramov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov)
14.	Intellectual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish bo'yicha idoralararo hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi	2021-yil 1-avgust	Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Davlat soliq qo'mitasi (Sh. Kudbiyev), Davlat bojxona qo'mitasi (M. Azimov), Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi (N. Sharipov), Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (D. Raximov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), "O'zkomnazorat" (G'. Ziyayev)
15.	Intellectual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilishda bojxona organlariga o'z tashabbusiga ko'ra intellectual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning buzilganlik belgilari mavjud bo'lgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish vakolatini berish bo'yicha amaldagi bojxona qonunchiligiga "ex officio" talabini kiritish masalasini tahliliy o'rganish.	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2021-yil 1-mart	Davlat bojxona qo'mitasi (M. Azimov), Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov)
	Davlat bojxona qo'mitasi xodimlarining intellectual mulk sohasidagi malakasini oshirishni tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Muntazam ravishda	

16.	Tajriba tariqasida Farg‘ona viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalarida hamda respublika to‘qimachilik klasterlarida qo‘llanilayotgan texnologiyalarda muhofazalangan intellektual mulk obyektlarini xatlovdan o‘tkazilishini tashkil etish. Tajriba doirasida amalga oshirilgan ishlar monitoringini olib borish hamda tajribaning ijobiy yakunlari bo‘yicha uni keyinchalik doimiy asosda joriy etish yuzasidan asoslantirilgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tashkiliy chora-tadbirlar Axborot-tahliliy ma’lumotnoma	2021-yil 1-may 2021-yil 1-iyul	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (<i>I. Norkulov</i>), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (<i>A. Ortiqov</i>), “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi (<i>I. Haydarov</i>) Intellektual mulk agentligi (<i>T. Abdusattarov</i>)
17.	Intellektual mulk himoyasi markazlari, hududiy adliya va soliq organlari xodimlari uchun intellektual mulk obyektlarini himoya qilish bo‘yicha amaliy seminar-treninglar, vebinarlar o‘tkazish. Intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyotini umumlashtirish va huquqni qo‘llash amaliyotining bir xilligini ta’minlash maqsadida markazlar va hududiy adliya organlari xodimlari uchun muayyan sohalarga (alkogol, qandolat, parfyumeriya mahsulotlari ishlab chiqarish kabi) taalluqli uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish.	Tashkiliy chora-tadbirlar Uslubiy qo‘llanmalar	Tasdiqlangan grafikka muvofiq 2021-yil davomida	Adliya vazirligi (<i>R. Davletov</i>), Intellektual mulk agentligi (<i>T. Abdusattarov</i>), Davlat soliq qo‘mitasi (<i>Sh. Kudbiyev</i>)
V. Intellektual mulk sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni qo‘llab-quvvatlashda targ‘ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish				

18.	Tadbirkorlik subyektlari bilan tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish, ixtirolarni patentlash, franshiza (brendni xorijga eksport qilish) bitimlarini tuzish, xorij bozorlarida milliy tovar belgilarini himoya qilish va targ'ib qilish, mahalliy brendlar hamda davlatning imijiga brendreydingning salbiy jihatlari kabi masalalar yuzasidan konferensiyalar o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Yilda ikki marta	Adliya vazirligi (R. Davletov), Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Eksportni rag'batlantirish agentligi (U. Muradov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (I. Norkulov), Savdo-sanoat palatasi (A. Ikramov), xo'jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
19.	Har yili bir marta respublika bo'ylab kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasiga qarshi real samarali kurashishni ko'zda tutuvchi hamda targ'ibot-tashviqot ruhi bilan sug'orilgan "Kontrafaktsiz oy" oyligini o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili 15-fevral — 15-mart	Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Davlat soliq qo'mitasi (Sh. Kudbiyev), Davlat bojxona qo'mitasi (M. Azimov), tegishli vazirlik va idoralar
20.	"Kontrafaktsiz hudud" shiori ostida intellektual mulk obyektlari huquqlari bo'yicha harakatni kengaytirish va targ'ibot-tashviqot ishlarini jadallashtirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Tasdiqlangan grafikka muvofiq	Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), MTRK (A. Xadjayev), Davlat soliq qo'mitasi (Sh. Kudbiyev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev)
21.	Kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasi oqibatida iste'molchilarga yetkaziladigan zarar, xususan ularning inson salomatligiga bo'lgan salbiy ta'siri to'g'risida to'liq va batafsil axborot berilishini ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Muntazam ravishda	Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi (E. Xaitmetov), MTRK (A. Xadjayev), Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev)

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PQ-4965-son qaroriga
2-ILOVA

Intellectual mulk (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari) sohasini rivojlantirish bo'yicha 2021 — 2023-yillarga mo'ljallangan amaliy ishlar

DASTURI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro mexanizmi	Mas'ul ijrochilar	Bajarish muddati
I. Ilmiy ishlanmalarni yaratish, joriy qilish va texnologiya transferini rivojlantirish				
1.	Oliy ta'lim muassasalari (OTM), ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish.	OTMlar va ilmiy tashkilotlar hamda tadbirkorlik subyektlari, sanoat korxonalari o'rtasida texnologik platformani (kommunikatsion maydon) yaratish maqsadida sohalar bo'yicha intellektual mulk obyektlari va yangi texnologiyalar yarmarkalarini tashkil etish.	Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>I. Abduraxmonov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>B. Yuldashev</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>A. Toshqulov</i>), Intellektual mulk agentligi (<i>T. Abdusattarov</i>), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (<i>I. Norqulov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar	2021 — 2023-yillarning I, III choraklari
2.	Ilmiy laboratoriyalar tomonidan xorijiy muassasa va kompaniyalar bilan hamkorlik asosida tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy ishlanmalar va ixtirolar qilish hamda ularni joriy qilish ishlarini faollashtirish.	1. Ilmiy tashkilotlar, markazlar, laboratoriyalar tomonidan o'z yo'nalishlari bo'yicha xorijiy ilmiy va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari yoki yuqori texnologiyalarga asoslangan kompaniyalarda dolzarb muammolarni o'rganish va hamkorlik asosida ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini (R&D) rivojlantirish, ixtirolar qilish va joriy etish ishlarida faollikni yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish. 2. Har bir muassasa tomonidan xorijiy ilmiy va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari yoki yuqori texnologiyalarga asoslangan kompaniyalar bilan dolzarb muammolarni o'rganib, hamkorlik asosida ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini	Fanlar akademiyasi (<i>B. Yuldashev</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>I. Abduraxmonov</i>), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>A. Toshqulov</i>), tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralar	2021-yil II chorak 2021-yil III chorak

		amalga oshirish, ixtirolarni yaratish, patentlash va joriy etish ishlarini amalga oshirishni yo'lga qo'yish.		
3.	Respublika va xalqaro miqyosda bo'lib o'tadigan innovatsion ishlanmalar va g'oyalarga bag'ishlangan tadbirlarda Geologiya fanlari universiteti hamda ilmiy-tadqiqot institutlarining ishtirokini tizimli yo'lga qo'yish hamda yangi ishlanmalarining patentlash va joriy etilishini ta'minlash.	1. Ilmiy-tadqiqot institutlarining yillik qo'lga kiritayotgan natijalari, ishlanmalarini doimiy ravishda geologiya qidiruv ishlari amaliyotida sinovdan o'tkazish hamda innovatsion ishlanmalar va g'oyalarga bag'ishlangan tadbirlarda muhokamadan o'tkazish. 2. Sinovdan samarali o'tgan ishlanmalarga patent olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. 3. Innovatsion ishlanmalar va g'oyalarni amaliyotga joriy etilishini amalga oshirish.	Davlat geologiya qo'mitasi (B. Islamov), ilmiy-tadqiqot institutlari	Doimiy ravishda
4.	Ilmiy-tadqiqot institutlarida geologiya sohasida muddatlari yakunlangan, dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ishlanmalari patentlarining amal qilish muddatlarini uzaytirish choralari ko'rish.	1. 4 ta ilmiy tadqiqot institutlarida mavjud patentlarning dolzarbligi bo'yicha ro'yxatini shakllantirish. 2. Dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ishlanmalar uchun olingan patentlar (agar muddati yakunlangan bo'lsa) muddatlari uzaytirilishini amalga oshirish.	Davlat geologiya qo'mitasi (B. Islamov), ilmiy-tadqiqot institutlari	Doimiy ravishda
II. Ilm-fan tizimida intellektual mulk va uning muhofazasini takomillashtirish				
5.	OTM va ilmiy tadqiqot institutlarining intellektual mulk sohasidagi siyosatini ishlab chiqish.	1. Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT) akademik va ilmiy-texnikaviy muassasalar uchun intellektual mulk sohasidagi siyosati bo'yicha Namunaviy nizomini OTMlar bilan muhokama qilish. 2. Namunaviy nizom bo'yicha OTMlar va ilmiy-texnikaviy muassasalarning intellektual mulk sohasidagi siyosati loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashish.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshqulov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), Intellektual mulk agentligi (T. Abdusattarov), oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari	2021-yil I chorak 2021-yil II chorak

6.	OTMlar va ilmiy-tadqiqot institutlari uchun intellektual mulk muhofazasi bo'yicha konsalting xizmatlarini kengaytirish.	1. "Intellektual mulk konsultativ markazi" DUK va respublika mintaqalaridagi Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari (TIQQM) yordamida intellektual mulk muhofazasi bo'yicha konsalting xizmatlarini keng yoyish. 2. OTMlar va ilmiy-texnikaviy muassasalar tomonidan yaratilayotgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish bo'yicha OTMlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish.	Intellektual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshqulov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov), oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari	2021-yil IV chorak Doimiy ravishda
7.	Huquqni qo'llovchi organlar xodimlarining intellektual mulk sohasi bo'yicha bilim va malakalarini oshirish.	Huquqni qo'llovchi organlar, jumladan bojxona organlari xodimlarining intellektual mulk sohasidagi bilim va malakalarini oshirishga qaratilgan qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish.	Adliya vazirligi (R. Davletov), Intellektual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Davlat bojxona qo'mitasi (M. Azimov), Davlat soliq qo'mitasi (Sh. Kudbiyev), manfaatdor vazirlik va idoralar	2021 — 2023-yillarning II, IV choraklari
8.	Intellektual mulk muhofazasi sohasida patentshunos kadrlarni va patent vakillarini tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish.	Oliy ta'lim tizimida "Patentshunoslik" (bakalavr) yo'nalishini tashkil etish hamda Intellektual mulk agentligi, Fanlar akademiyasi, OTM va ishlab chiqarish korxonalari uchun bugungi kunda o'ta zarur bo'lgan intellektual mulk sohasidagi kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish. Bunda, BIMT Akademiyasi va sohada ilg'or bo'lgan xorijiy davlatlarning patentshunoslar hamda patent vakillarini tayyorlash	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshqulov), Adliya vazirligi (R. Davletov), Intellektual mulk agentligi (T. Abdusattarov), manfaatdor vazirlik va idoralar	2021-2022 o'quv yilidan boshlab

		bo'yicha tajribasi va o'quv dasturlarini inobatga olish.		
9.	Ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlarining marketing xizmati faoliyatini qayta tashkil etish.	Mas'ul vazirlik va idoralar hamda tarmoq oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tomonidan har bir muassasaning marketing xizmati faoliyatini va kadrlar masalasini tanqidiy ko'rib chiqib, natijasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritish.	Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshqulov), tizimida ilmiy tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralar	bir oy muddatda
10.	Ixtirolarni xorijda patentlash bo'yicha sohaga oid kadrlar uchun davlat tilida tegishli qo'llanma va axborot materiallarini ishlab chiqish.	Xorijda patentlash, jumladan xalqaro Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma (Patent Cooperation Treaty — PCT) asosidagi tizim bo'yicha ixtirolarni patentlash, talabnomalarni tuzish, PCT tizimda onlayn tarzda talabnomalarni topshirish, ish yuritishni tashkil etish bo'yicha qo'llanmalar va patentlash jarayonini bosqichma-bosqich tushuntirib beruvchi axborot materiallarini tayyorlash.	Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov)	2021-2022-yillar
III. Intellectual va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish				
11.	Intellectual mulk obyektlari yaratish va tijoratlashtirish sohasiga venchur fondlarini keng jalb qilish.	Patent egalarini venchur fondlar bilan bog'lashning zamonaviy va yangi mexanizmlarini o'rganish hamda joriy qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov)	2021 — 2023-yillar
12.	Oliy ta'lim muassasalari va tarmoq tadqiqot institutlarida yaratiladigan ilmiy ishlanmalarni patentlash va tijoratlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish.	1. Raqobatbardosh ishlanmalar sonini oshirish va ishlanmalar sifatini yaxshilash uchun ishlab chiqarishga joriy etilgan intellectual mulk obyektlarining mualliflarini rag'batlantirish tizimini joriy etish. 2. Jahon intellectual mulk bozorida (Intellectual property market) raqobatlashish va investitsion jozibadorlik sifatlariga ega intellectual	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshqulov), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), tizimida ilmiy tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralar, Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov)	2022-yil II chorak 2022-yil IV chorak

		faoliyat natijalarini yaratish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish.		
IV. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish				
13.	Elektron shakldagi o'quv materiallar bazasini yaratish.	Intellectual mulk obyektlari va ularning huquqiy muhofazasi aks ettirilgan o'quv-video materiallar bazasini yaratish va bunday materiallar bazasini muntazam oshirib borish.	Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshqulov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov)	2021-yil davomida
14.	Butunjahon intellectual mulk tashkilotining (BIMT) masofaviy o'qitish tizimi asosida Intellectual mulk agentligi veb-sahifasida masofaviy o'qitish tizimini joriy etish.	1. BIMTning masofaviy o'qitish tizimi (WIPO Distance Learning) materiallarini BIMT roziligi asosida o'zbek tiliga tarjima qilish. 2. Masofaviy o'qitishning moddiy-texnik bazasini shakllantirish. 3. Intellectual mulk agentligi rasmiy veb-sayti negizida masofaviy o'qitish veb-sahifasini yaratish.	Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov)	2021-yil IV chorak 2022-yil I chorak 2022-yil II chorak
15.	Hududlarda sohaviy "fan — ta'lim — ishlab chiqarish" integratsiyalashuvini ixtirochilar, innovatorlar, biznes-jamoalar, ta'lim va ilm yoshlariga maxsus axborotlar bazasi, boshqa axborot resurslardan foydalanishni o'rgatuvchi konferensiyalar, ta'lim seminarlari, trening va davra suhbatlarini o'tkazish xizmatlarini ko'rsatuvchi axborot maydonchalari yaratilishida TIQQMlar rolini oshirish.	1. Maxsus axborotlar bazasi, boshqa axborot resurslardan foydalanishni o'rgatuvchi konferensiyalar, ta'lim seminarlari, trening va davra suhbatlarini o'tkazish reja-grafigini ishlab chiqish. 2. Xizmatlarni ko'rsatuvchi axborot maydonchalarini TIQQMlarda tashkil etish, yagona TIQQM axborot portalini yaratish. 3. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha matbuotda doimiy ravishda ma'lumotlar va tushuntirish berib borish.	Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshqulov)	2021-yil II chorak 2022-yil I chorak Muntazam ravishda
V. Qishloq xo'jaligi sohasida intellektual mulkni rivojlantirish				
16.	Qishloq xo'jaligi sohasida ixtiro, foydali model, sanoat namunasi,	1. Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari yarmarkalarini tashkil etish.	Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev),	Har yilning III choragi

	seleksiya yutuqlarini rivojlantirish.	2. Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari uchun patent olishga ko‘maklashish maqsadida bepul konsalting xizmatlarini joriy etish.	Intellectual mulk agentligi (<i>T. Abdusattarov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar	2021-yil II chorak
17.	Hududlarda mavjud geografik ko‘rsatkichlarni rivojlantirish.	1. Hududlarda mavjud istiqbolli geografik ko‘rsatkichlarni aniqlash. 2. Istiqbolli geografik ko‘rsatkichlar yarmarkalarini tashkil etish. 3. Geografik ko‘rsatkichlarning muhofaza belgilarini ishlab chiqish. 4. Istiqbolli geografik ko‘rsatkichlarni ishlab chiqaruvchilar bilan joylarda uchrashuvlar tashkil etish, mahsulot spetsifikatsiyasini ishlab chiqishga ko‘maklashish.	Qishloq xo‘jaligi vazirligi (<i>J. Xodjayev</i>), Intellectual mulk agentligi (<i>T. Abdusattarov</i>), Savdo-sanoat palatasi (<i>A. Ikramov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar	2022-yil I chorak 2022-yil II chorak 2022-yil III chorak 2023-yil I chorakdan boshlab
VI. Mamlakatda innovatsion tafakkur va yaratuvchanlik muhitini shakllantirish				
18.	Ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirish va yaratuvchanlikni rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan TIQQM faoliyatini kuchaytirish.	1. Respublikadagi TIQQMlar faoliyati samaradorligining doimiy monitoringini olib borish uchun ishchi guruhi tuzish. 2. Ishchi guruh tomonidan har chorak yakuni bo‘yicha monitoring natijalariga ko‘ra takliflarni ishlab chiqish hamda Adliya vazirligiga kiritib borish. 3. Adliya vazirligi tomonidan TIQQMlar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Intellectual mulk agentligi (<i>T. Abdusattarov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>I. Abduraxmonov</i>), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (<i>I. Norqulov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>B. Yuldashev</i>), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (<i>A. Toshqulov</i>)	2021-yil I chorak 2021-yil II chorak 2021-yil IV chorak
19.	TIQQM orqali foydalanuvchilarga ko‘rsatiladigan to‘lovsiz va to‘lovli xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish.	1. TIQQM orqali foydalanuvchilarga ko‘rsatiladigan to‘lovsiz va to‘lovli, asosiy va qo‘shimcha xizmatlarni tahlil qilish. 2. TIQQM orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxatini shakllantirish va tizimlashtirish.	Intellectual mulk agentligi (<i>T. Abdusattarov</i>), Innovatsion rivojlanish vazirligi (<i>I. Abduraxmonov</i>), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (<i>I. Norqulov</i>), boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar	2022-yil I chorak 2022-yil II chorak

20.	Intellectual mulk obyektlarining litsenzion shartnomalar asosida Intellectual mulk agentligida ro'yxatdan o'tkazilishi va tijoratlashtirilishini rag'batlantirish bilan jadallashtirish.	1. Tuzilgan litsenzion shartnomalarni va ularning ishlash holatini tahlil qilish. 2. Litsenziya shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish afzalliklarining targ'ibotini kuchaytirish.	Intellectual mulk agentligi (T. Abdusattarov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov), boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar	2021-yil III chorak 2022-yil I chorak
-----	--	---	--	--

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-avgustdagi PF-6280-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.08.2021-y., 06/21/6280/0811-son)


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PQ-4965-son qaroriga
3-ILOVA


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4380-son qaroriga 1-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligining

TUZILMASI





Agentlik markaziy apparati tuzilmasida boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni — 89 birlik. Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq aniqlanadi.”.

2. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 1-iyuldagi 298-son qarori bilan tasdiqlagan Patent vakillari to'g'risidagi **nizomda**:

a) **4-bandda**:

uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

to'rtinchi xatboshisi uchinchi xatboshisi deb hisoblansin;

uchinchi xatboshisidagi “bilimlarga hamda malaka imtihoni natijalari bilan tasdiqlangan tegishli ko'nikmalarga va amaliy qo'llanish tajribasiga” degan so'zlar “malaka imtihoni natijalari bilan tasdiqlangan bilimlarga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

b) **6-band** “va rasmiy veb-saytida joylashtiradi” degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

v) **7-banddagi** “Agentlik belgilaydigan” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilaydigan” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

g) 9-bandning **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Malaka komissiyasi malaka imtihoni savollarini tasdiqlaydi, malaka imtihonini o'tkazadi va nomzod yoki patent vakilining attestatsiyadan o'tkazilganligi to'g'risida qarorlar qabul qiladi”;

d) 10-bandning **birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Nomzod Agentlikka o'zini patent vakili sifatida attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida ariza beradi. Arizaga oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasi, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi belgi mavjud bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik pasporti nusxasi, attestatsiyadan o'tkazish uchun belgilangan to'lov to'langanligi haqidagi hujjat, shuningdek, nomzodning istagiga ko'ra uning kasb bilimlari darajasini tavsiflovchi boshqa hujjatlar ilova qilinadi”;

e) **11-bandda**:

quyidagi mazmundagi ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“Nomzod yoki patent vakilini malaka imtihoniga qo'yish quyidagi hollarda rad etiladi:

ushbu Nizomning 3-bandi, 4-bandining ikkinchi xatboshisi, 5-bandi va 10-bandining uchinchi xatboshisi (patent vakili uchun)da belgilangan talablarga rioya qilinmaganda;

attestatsiya uchun belgilangan to'lov to'lanmaganda";

ikkinchi xatboshi beshinchi xatboshi deb hisoblansin;

j) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"13. Malaka komissiyasi nomzod yoki patent vakilini attestatsiyadan o'tkazishni quyidagi hollarda rad etadi:

ushbu Nizomning 4-bandi uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan talablarga nomuvofiq bo'lganda;

malaka imtihoniga qo'yish rad etilganda.

Ushbu bandning ikkinchi xatboshisi asosida attestatsiyadan o'tkazish rad etilgan nomzod yoki patent vakili kamida olti oydan keyin takroriy attestatsiyaga qo'yilishi mumkin";

z) 15-banddagi "uning attestatsiyadan o'tganligi to'g'risida qaror qabul qilingan" degan so'zlar "uni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

i) 16-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"16. Agentlik reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan boshlab o'n kun mobaynida patent vakiliga ro'yxatdan o'tganlik to'g'risida guvohnoma beradi va ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini Agentlikning rasmiy axborotnomasida e'lon qiladi. Ko'rsatilgan ma'lumotlar reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan kunda Agentlikning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi. Guvohnoma shakli va e'lon qilinadigan ma'lumotlar tarkibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi";

k) 24-band quyidagi mazmundagi jumla bilan to'ldirilsin:

"Ko'rsatilgan axborot reyestrda chiqarilgan kunda Agentlikning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi";

l) 25-banddagi "amalga oshirilishi mumkin" degan so'zlar "amalga oshiriladi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

m) 29-banddagi "Agentlik belgilaydigan" degan so'zlar "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilaydigan" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-dekabrda 1033-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida nizomning 11-bandidan "O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining o'rinbosari —" so'zlari chiqarib tashlansin.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2021-y., 07/21/4965/0074-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son, 23.08.2021-y., 06/21/6280/0811-son)